

**O'ZBEKISTON SHAROITIDA MALINA NAVLARINI O'SISH
DINAMIKASINI O'RGANISH**

Abdullayeva Hilola Ravshanovna

Akademik Mahmud Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti kat.i.x., q.x.f.d., Toshkent

E-mail: hilola.abdullayeva@mail.ru

Aytbayeva Dilfuza Rustamboy qizi

Akademik Mahmud Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

E-mail: dilfuzad982@gmail.com

(+998) 99 995-06-09

Temirova Gulira'nno Baxtiyor qizi

O'zbekiston Milliy universiteti, tayanch doktorant, Toshkent

E-mail: guliranotemirova1026@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi prezidentining qarorlari, malinaning xalq xo'jaligidagi ahamiyati, kelib chiqish tarixi va foydali hususiyatlari, bir yil davomida malina ko'chatlarining o'sib rivojlanish dinamikasi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Malina, "Delniva", "Marovella", "Gerakl", "Lyashka", "Malboro", "Jyoltiy gigant", lineyka, shtangensirkul, dinamika.

Аннотация. Постановления Президента Республики Узбекистан, значение малины в народном хозяйстве, история происхождения и полезные свойства, приведены данные по динамике роста саженцев малины за год.

Ключевые слова: малина "Дельнива", "Маравилла", "Геракль", "Ляшка", "Мальборо", "Жёльтый гигант", линейка, штангенциркуль, динамика

Annotation. This article provides information on the decisions of the President of the Republic of Uzbekistan, the importance of raspberries in the

national economy, the history of their origin and beneficial properties, and the dynamics of the growth and development of raspberry seedlings over the course of a year.

Key words. *Raspberry, “Delniva”, “Marovella”, “Gerakl”, “Lyashka”, “Malboro” “Jyoltiy gigant”, ruler, circle with rod, diameter.*

Kirish. So‘ngi yillarda respublikamizda bog‘dorchilik va uzumchilikni rivojlantirish bo‘yicha qator hukumat qarorlari hamda farmoyishlar qabul qilindi. “Qishloq xo‘jaligi maydonlaridagi qo‘sishimcha imkoniyatlardan foydalangan holda mahsulot yetishtirishni ko‘paytirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident qarori (PQ-465-son, 30.12.2024-y.) da ko‘ra, dala chetlari hamda aholi tomorqasi, xonadonlar va ko‘p qavatli uylar oldi, mahallaning ichki ko‘chalarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi yangi tartib joriy etiladi:

O‘simpliklar karantini va himoyasi agentligiga dala chetlarida hamda aholi tomorqasi, xonadonlar va ko‘p qavatli uylar oldi, mahallaning ichki ko‘chalarida mahsulot yetishtirish, qishloq xo‘jaligi sub’yektlariga urug‘ va ko‘chatlar yetkazib berish hamda yetishtirilgan mahsulotlarni eksportga yo‘naltirishni tashkil qilish vazifasi yuklatilgan.

Adabiyotlar tahlili. Malina o‘rganish bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar bir qator mahalliy va xorijiy olimlar (Yagudina 1966, Abdullayev 2020, Tadjibayev 2024, Roslavsev 1987, Semenova 2008 , Savyev 2010 , Kazakov 2004) tomonidan o‘rganilgan. Dunyoda malina yetishtirishda yetakchi mamlakat hozirgi vaqtida Rossiya yetakchi mamlakat hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Meva va rezavor mevalar yetishtirish va ularni ko‘paytirish bog‘dorchilikning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Yurtimizda yetishtiriladigan meva va rezavorlar orasida malinaga talab katta. Malina mevasi parxezbopligi, shirin ta‘mga egaligi va qayta ishlash uchun juda qulaydir. Rezavor mevalar o‘zining yoqimli ta‘mi, organizm uchun zarur bo‘lgan vitaminlar mavjudligi va shifobaxshligi bilan uzoq vaqlardan beri sevib iste‘mol qilinadi. Malinaning shifobaxsh hususiyatlari qadim zamonlardan ma‘lum. Tarkibida shakar,

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

organik kislotalar, C, P, B9 vitaminlari hamda gemotogen birikmalarining garmonik birikkanligi malina mevasini yara kasalliklari, kamqonlik, qon tomirlari o‘tkazuvchanligining buzilishi kabi turli xastaliklarda juda foydalidir. Malina yuqori nafas yo‘llariga antiseptik ta‘sir ko‘rsatish hamda shamollashning oldini olish hususiyatlariga ega bo‘lgan antibiotiklarga boy.

Malina 2,5 ming yildan ko‘proq vaqt avval iste‘mol qilina boshlangan. Bu xaqda birinchi marta qadimgi Rim olimi Katon (miloddan avvalgi III asr) qayd etgan. Patritsiyalarning bog‘larida u madaniy o‘simlik sifatida miloddan avvalgi IV asrda yetishtirila boshlangan. Pliniy Elder yangi davrning boshida yovvoyi malinani tasvirlab berdi. Xattoki yunonlar va rimliklar ham rezavor mevalarni hamda gullarini shifobaxshdori sifatida foydalanishgan.

Malina bo‘yi 0,5-1,5 m keladigan chala buta o‘simlikdir. Poyasi tik, ko‘pincha uchi egilib o‘sadi, tikanlar va tukchalar bilan qalin siyrak qoplangan, kamdan-kam holda tuksiz va tikansiz bo‘ladi. Malina tez o‘sadi. To‘liq rivojlanish davri 2 yilda tugallanadi, shundan keyin qurib qoladi. Birinchi yili 1,5 m gacha va undan uzun baquvvat poyalar chiqaradi, odatda, shoxlamaydi, bo‘g‘im oraliqlari uzun bo‘ladi. Ikkinci yili poyasi o‘sishdan tuxtab, barg, hosil shoxlari chiqaradi, gullaydi va meva tugadi. Hosil bergen poyalari keyin qurib qoladi, ularning o‘rniga quiyotgan poyalar asosidagi qurtaklardan 2-3 ta yangi novda o‘sib chiqadi. Malina tupi quriy boshlagan va o‘rnidan ko‘plab novdalar o‘sib chiqqa boshlagan sari ularning o‘rtada qolganlari zaiflashib o‘smay qoladi, shuning uchun ham yangi novdalari eski tupining tevarak-atrofi bo‘ylab hosil bo‘ladi.

Malina iyun boshlarida pisha boshlaydi. Uning mevalari juda nozik bo‘lganligidan nihoyatda ehtiyyotlik bilan terish va tashish lozim. Malina ham qulupnay singari teriladi va joylanadi. Joyida tarqatish uchun malina mevasi bandsiz, uzoqqa jo‘natish uchun esa meva bandi bilan va bir oz homligida teriladi.

Malina tarkibida 10-12% gacha qand (8% gacha saxaroza mavjud), 2% gacha kislotalar, (molik, limon, kaproik, salitsil) S vitaminlari (34-46,4 mg /100g) va B, P guruh (36-84mg/100g) mavjud.

Tahlil va natijalar. Malina ko‘chatlarining novdalarini o‘sish dinamikasi

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

V.L.Vitkovskiy (1979) uslubi bo'yicha o'tkazildi. [5; 58-b.]

Malina navlarining qalamchalarini ko'chatlarini rivojlanish davrida novdalarning rivojlanishi muhim hisoblanadi.

Novdalarning o'sish dinamikasini aniqlash uchun lineyka va shtangensirkul yordamida har 10 kun oralig'ida to tabiiy o'sishdan to'xtagunga qadar o'lchandi.

Qalamchalarning bo'yi va enini o'lhash ishlari 1-iyun, 1-iyun, 1-iyul, 1-avgust, 1-sentabr kunlari o'lchab borildi.

1 – mayda, birinchi marta rivojlanayotgan ko'chatlarning bo'yi hamda eni o'lchab chiqildi.

Dastlabki olingan natijalarga ko'ra o'rtacha novdaning uzunligi Malina navlarining novdalarini o'sish dinamikasi o'lchanganda iyun oyida "Delniva" navida novdasining uzunligi 37,8 sm, "Maravilla" navida novdasining uzinligi 42,1 sm, "Malboro" va "Gerakl" navlarida novdalarining o'sishi 10 sm yuqori o'sa boshlagan.

Iyul oyida esa "Delniva" navida novdasining o'sish uzunligi 48,3 sm, "Maravilla" 62,2 sm, "Malboro" navida novdaning uzunligi 57,3 sm, "Gerakl" navida novdaning o'sishi 45,1 sm ga o'sgan.

Avgust oyida Delniva navida novdasining o'sish uzunligi 61,1 sm, "Maravilla" 81,3 sm, "Malboro" navi 77,0 sm, "Gerakl" navida novdaning o'sishi 64,8 sm tashkil qildi.

Sentyabr oyida navlarning o'sish uzunligini o'lchaganda "Maravilla" navi 100,5 sm ni tashkil qilib, boshqa navlarga nisbatan tez rivojlanib o'sganini ko'ramiz. Boshqa navlarga nisbatan rivojlanishi o'sishi sekinroq kuzatilgan nav bu- "Delniva" navi 95,4 sm ni tashkil qildi.



Malina navlarini o'sish dinamikasini o'lhash va dala daftariga qayd etish jarayoni

Malina navlarining novdalarini o'sish dinamikasini aniqlash.

Navlar	Anovdalarning o'sish uzunligi, sm								Novdalarni diametri, mm							
	Iyun		Iyul		Avgust		Sentabr		Iyun		Iyul		Avgust		Sentabr	
	01	15	01	15	01	15	01	15	01	15	01	15	01	15	01	15
Delniva	37,8	42, 5	48,3	51, 7	61,1	73,5	88,2	95,4	0,22	0,27	0,3	0,39	0,45	0,49	0,52	0,58
Maravilla	42,1	53, 4	62,2	72, 4	81,3	92,4	100,5	107,5	0,26	0,30	0,36	0,4	0,46	0,51	0,56	0,61
Malbaro	36,7	45, 3	57,3	68, 2	77,0	85,7	92,3	103,3	0,29	0,35	0,41	0,46	0,53	0,6	0,72	0,80
Gerakl	29,5	38, 3	45,1	57, 3	64,8	74,3	81,2	95,7	0,25	0,31	0,39	0,43	0,51	0,59	0,61	0,72
Jyoltiy gigant	28,8	32, 5	42,3	51, 7	65,1	74,5	84,2	89,4	0,24	0,20	0,28	0,35	0,44	0,48	0,55	0,62
Lyashka	39,8	42, 5	48,3	55, 7	67,1	75,5	81,2	87,9	0,23	0,27	0,30	0,38	0,47	0,49	0,57	0,61

Xulosa va takliflar. Tadqiqotlar natijasida malina navining o'sish dinamikasi o'lchanganda "Delniva" navi yil davomida o'sish balandligi 95,4 sm ga o'sdi. "Maravilla" navining o'sish balandligi 88,2 sm, "Malboro" navida esa o'sish uzunligi 92,3 sm ga o'sdi. "Gerakl" navining o'sish balandligi 81,2 sm ni tashkil qildi. Xulosa qilib aytish mumkinki malina ichida "Lyashka" navining rivojlanishi boshqa navlarga nisbatan ustunlik qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. PF-158-son. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida Prezident Farmoni. 2023-yil 11-sentabr.
2. Yagudina S.I. - Smarodina. Tashkent. Izd-vo "Fan" 1976. – 120 s
3. R.M.Abdullayev, H.R.Abdullayeva Rezavor mevali o'simliklar. Toshkent-2020 – B. 35-38-39
4. H.R Abdullaeva. Rezavor mevalar – tanga darmon. / J.: O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent, 2016. - №4. – B. 11-12.
5. Мацков Ф.Ф. К вопросу о физиологической характеристике сортов яровой пшеницы. Советская ботаника №1. 1976, 45 с.
6. Елсакова С.Д. Изучение биологических особенностей, продуктивности размножения малини: Автореф. дис. канд. с.-х. наук: С.Д. елсакова; — Москва, 1978. - 23 с.
7. https://leplants.ru/rubus-idaeus-malboro/?srsltid=AfmBOoqs1StUCPDBH13_Bb8Q7Y_bGjgWo-nQ4f1ep2ZWgN15QILzQXWb
8. <https://ezhemarina.ru/vyrashhivanie-maliny/>
<http://journal.ufaras.ru/wp-content/uploads/2023/09/38-41.pdf>